

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil

“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.

Mas’ul muharrir

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarning mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI FONETIKASI

Ahmedov A. R.,

BuxDU professori, f.f. nomzodi,

Reimbergenova J.Sh.,

BuxDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillari harflarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini solishtirilishini ko'rishing mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi yozuv alifbosi va tovushlar sistemasi, hamda har ikkala tilda singormonizm qonuniyati va ikkala tildagi grammatik kategoriyalar haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: tovushlar sistemasi, singormonizm hodisasi, grammatik kategoriya, harflarining aytilishi.

Bilamizki, qoraqalpoq tili yozuvi shakllanishidan oldin albatta o'zbek alifbosi ya'ni o'zbek yozuvi shakllangan. Mardonqul Boltayevning "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi" o'quv qo'llanmasida shunday deydi: "Ulug' mutafakkir shoir, g'azal mulkingning sultoni hazrati Mir Alisher Navoiy tilning, so'zning jamiyatda, inson hayotida tutgan o'rnini quyidagi misralarida juda go'zal va maromiga yetkazib tasvirlay olgan:

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,

So'zdurki, berur jonga xabar jonondin,

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida unli va undosh tovushlarni ifodalash uchun 26 ta harf hamda 3 ta harflar birikmasi berilgan: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng. Bulardan 6 tasi unililardir: Aa, Oo, Uu, O'o', Ii, Ee.

1929-1940-yillarda lotin grafikasiga asoslangan qoraqalpoq yozuvi amalda bo'lgan. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin esa 1994-yilda o'zbek tilidan keyin qoraqalpoq tiliga lotin alifbosi asosidagi alifbo tasdiqlandi. Yangi qoraqalpoq alifbosiga so'ngi o'zgarishlar 2016-yilda kiritilgan. Qoraqalpoq tili alifbosi, qanday talaffuz qilinishi bilan birgalikda quyidagi jadvalda yoritilib berilgan:

№	Qoraqalpoq alifbosi	Talaffuz qilinishi	№	Qoraqalpoq alifbosi	Qoraqalpoq alifbosi
1	A a	[o]	17	O o	[o']
2	A' a'	[a]	18	O' o'	[wo']
3	B b	[b]	19	P p	[p]
4	D d	[d]	20	R r	[i'r]
5	E e	[ye]	21	S s	[s]
6	F f	[f]	22	T t	[t]
7	G g	[g]	23	U u	[uo']
8	G' g'	[g']	24	U' u'	[i'o']
9	H h	[ha]	25	W w	[i'v]
10	X x	[x]	26	Y y	[iy]
11	J j	[ж]	27	Z z	[z]
12	Q q	[q]	28	C c	[i's]
13	L l	[l]	29	Sh sh	[sh]
14	M m	[m]	30	Ch ch	[ch]
15	N n	[n]	31		
16	N' n'	[i'ng]	32		

O'zbek va qoraqalpoq tilida bir-biriga o'xshash harflar ko'p, lekin shu bilan birgalikda o'zbek alifbosida yo'q harflar qoraqalpoq alifbosida mavjud. Har ikkala yozuvdagi harflarning eng farqli tomoni shundaki, qoraqalpoq alifbosidagi harflar talaffuzi jihatidan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Qoraqalpoq tilidagi „a“ harfi, o'zbek tilidagi „o“ harfiga, „a“ harfi o'zbek tilidagi „a“ harfiga, qoraqalpoq tilidagi „h“ harfi o'zbek tilidagi „he“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „j“ harfi rus tilidagi „ж“ harfiga, qoraqalpoq tilidagi „n“ harfi o'zbek tilida „i'ng“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „o“ harfi o'zbek tilidagi „o“ harfiga, qoraqalpoq tilidagi „o“ harfi o'zbek tilida „wo“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „r“ harfi o'zbek tilida „i'r“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „u“ harfi o'zbek tilida „uo“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „u“ harfi o'zbek tilida „i'o“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „w“ harfi o'zbek tilida „i'v“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „y“ harfi o'zbek tilida „iy“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „c“ harfi o'zbek tilida „i's“ tarzida, qoraqalpoq tilidagi „e“ harfi o'zbek tilidagi „ye“ qo'shimchasiga moyil tarzda aytiladi. Ko'pchilikka tushunarsiz bo'lgan yana bitta hodisa mavjud, bu hodisa qoraqalpoq tilidagi i' harfi bo'lib, o'zbek tilidagi i harfiga momand aytiladi. Ya'ni „I“ harfi dimog'dan aytiladi. Arab tilida ham dimog' harflari ko'p, misol uchun **ayn** va **g'oyin** harflari. Qoraqalpoq tilida aynan „i“ harfi ham huddi shunday dimog'dan aytiladi. Qoraqalpoq yozuvdagi harflarni o'zbek tilida bilan qiyoslanishi yana ham tushunarli bo'lishi uchun quyidagicha tushuntirish mumkin:

A - O tarzida,
A' - A tarzida,
E- ye tarzida,
H- ha tarzida,
J- ж tarzida,
N'- i'n tarzida,
Y- i'y tarzida ,

O- o' tarzida,
O'- wo' tarzida,
R- i'r tarzida,
U- uo' tarzida,
U'- i'o' tarzida,
W- i'v tarzida,
C- i's tarzida talaffuz qilinadi.

Har ikkala tilda ham har xil qonun qoidalar mavjud. Bulardan singormonizm hodidasiga e'tiborimizni qaratamiz. Umumiy qilib turkiy tilida o'zi singormonizm hodisasiga quyidagicha izoh beradigan bo'lsak, singormonizm- oldingi bo'g'in yoki o'zakdagi unliga keyingi bo'g'in yoki bo'g'indagi unlilar, ba'zan undoshlarning artikulyatsiya o'rni va usuliga ko'ra moslashuvdir. A.M. Sherbak ta'kidlaganidek, bir bo'g'inli so'zlardagi unli sifat jihatidan doimiy va mustaqil bo'lib, ko'p bo'g'inli so'zlardagi keyingi unli esa birinchi bo'g'inga muvofiqlashadi. Singormonizm hodisasi barcha tillarda mavjud, lekin turkiy tillar singormonizmga ko'proq amal qiladi. Hozirgi o'zbek tilida singormonizm hodisasiga uchragan so'zlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: bolalar, ana-mana, analizator, balandlatmoq, da'vatnoma, elektr, fojiana, g'adablov, habash, habata, hakam, hakalamoq, hamdam, jabazak, jabha, Ka'ba, kabare, kubanka, kuchala, la'nat, labbay, leksema, zabardast, za'far, zabarjad, xabarkash, xafagarchilik, xexelamoq, xijjillik, chag'alay, chag'illamoq, chakak, chechen, chibiq, chibin, chig'ir, chug'urchuq, vadavang, vaaleykum, vadavanglatmoq, vafodor, vagonsoz, daftar, vujud, baladiya.

Inson borki gapirayotgan gapini o'ziga moslashtirib, qulaylashtirib so'zlashga xarakat qiladi. Ko'rib turganimizdek ushbu keltirilgan misollarda ham so'zlar imlo lug'atida aynan shunday yoziladi va morfologik qo'shimchalar qo'shilganda yana ham singormonizm hodisasiga uchraydi.

Endi singormonizm hodisasini qoraqalpoq yozuvdagi so'zlarda ko'rib o'tamiz. Qoraqalpoq yozuvida o'zbek tiliga qaraganda singormonizm ya'ni moslashuvchanlik hodisasiga uchrash hodisasi ancha keng qo'llaniladi. Misol uchun: harakat, misali, tinishliq, qalmag'anlar, qaraqalpaq, sarafan, tazalash, qo'naqadar, depder so'zlarida faqatgina unli ya'ni qoraqalpoq tilidagi bir xil davisli sesler qo'llangan. Bundan tashqari bunday hodisani jaqsiliq, burung'i, ko'sheler, yegizekter, rahmet, tartipli, kutturmegen so'zlarini ham misol qilishimiz mumkin.

Ko'rib turganimizdek harakat, tinishliq, qalmag'anlar, qaraqalpaq, sarafan, tazalash, qo'naqadar, depder so'zlaridagi barcha unli harflari bir xil , ya'ni har bitta so'zdagi unli harflar bir-biriga moslashib shu so'zni tallaffuz qilish jarayonida anchagina qulaylik tug'diradi. Aynan mana shu hodisa singormonizm deyiladi. Yoki navbatdagi jaqsiliq, **burung'i**, ko'sheler, **yegizekter**, rahmet, **tartipli**, **kutturmegen** so'zlarida ham kamida ikkita bir xil unli bir xil bo'lib qo'llangan: **jaqsiliq**, **jaslar**, **jumus**, **japiraq**, **asman**, **keme**, **nefret**, **qazaq**.

Maqolada xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har ikkala til ham ya'ni o'zbek va qoraqalpoq tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi, lekin o'zbek shevalarga qarab ularning har xil lahjaga ajratishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda har ikkala tilda harflar farq qiladi va katta farq qoraqalpoq tilidagi unlilarning ko'pligida ekan, shuning uchun ham o'zbek tiliga nisbatan qoraqalpoq tilida singormonizm hodisasi ko'proq ishlatiladi deb aytishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Ahmedov A. R. et al. Some Feedback About Linguistic Knowledge //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 125-131.
2. Axmedov, A. (2023). ПРЕЦЕДЕНТНЫЕ ЕДИНИЦЫ. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 35(35). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10001
3. Adizova N. ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING QO'LLANISHI //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2021. – T. 6. – №. 6.
4. Aminovna A. G. Ethno-cultural issues in “thousand and one nights” //Conferencious Online. – 2021. – C. 84-85.
5. Vozorova, G. (2023). ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЛЕОНАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИСПОЛЗУЕМЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752
6. Hamroyeva M. R. LEBY LAYERS OF NAMES USED IN THE ARTISTIC WORKS OF TAHIR MALIK //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 367-373.
7. Asadov T. H. Natural characteristics of expressing sign affixes-cha/larcha/chasiga,-an,-ona //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 23. – C. 223-229.
8. Avliyoqulova L. PSIXOLOGLAR NUTQIGA XOS TIBBIY BIRLIKLARNING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 286-290.
9. Zuxro J. GENDERING NUTQIY IFODASI VA UNING PRAGMATIK TASNIFI //MASTERS. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 164-169.

TOSHPO'LAT AHMAD SHE'RIYATIDA AYRIM CHEGARALANGAN QATLAM SO'ZLARI HAQIDA

Azimova A. O'.,
BuxDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada chegaralangan qatlamga oid so'zlar – istorizmlar, arxaizmlar, sheva so'zlari, varvarlar, vulgarlar hamda o'zlashma so'zlarning she'riyatdagi ifodasi, xususan, Toshpo'lat Ahmad she'riyatidagi ishtiroki tadqiq etilgan bo'lib, ular shoir ijodida muhim o'rin tutishi dalillangan. Har bir nazariy fikr shoir she'rlari vositasida dalillangan hamda munosabat bildirilgan.

Tayanch so'zlar: *istorizm, arxaizm, sheva so'zlar, varvar, vulgar so'zlar, o'zlashma so'zlar*

Lug'aviy birliklarni ishlatilish doirasi jihatdan, avvalo, quyidagicha ikki qatlamga ajratish mumkin: a) ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam; b) ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam. Chegaralangan qatlam so'zlariga eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar (neologizmlar), ilmiy va kasbiy atamalar, mahalliy so'zlar (shevaga xos so'z), varvar va vulgar so'zlar va h.k.lar mansubdir.

Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, tabiiyki, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga ham murojaat qilinadi. Tilimizning hozirgi adabiy mavqeyi nuqtayi nazaridan qo'llanishi birmuncha susaygan yoki umuman qo'llanmaydigan so'zlar guruhi borki, bunday so'zlar eskirgan so'zlar deb nomlanadi. Bu kabi so'zlar so'zlashuv nutqida deyarli qo'llanmaydi. Eskirgan so'zlarni ko'proq badiiy adabiyotda, xususan, tarixiy asarlarda kuzatamiz. Ijodkorlar tarixiy voqealarni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirish maqsadida eskirgan so'zlardan foydalanadilar. Eskirgan so'z va grammatik birliklardan poeziyada ham keng foydalaniladi.